


Sirdaryo viloyatida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi 2025 yil yanvar-sentabr oylari uchun

- I. Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi
- II. Sirdaryo viloyati qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida
- III. Qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini yetishtirish
- IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni
- V. Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi boʻyicha uslubiy tushuntirishlar va metamaʼlumotlar

I. Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi

Dastlabki maʼlumotlarga koʻra, 2025-yilning yanvar-sentabr oylarida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi **12 250,8** mlrd soʻmni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda koʻrsatilgan xizmatlar – **11 651,3** mlrd soʻmni, oʻrmon xoʻjaligi – **448,5** mlrd soʻmni, baliqchilik xoʻjaligi – **151,0** mlrd soʻmni tashkil qildi.

Sirdaryo viloyatida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining oʻsish surʼati





II. Sirdaryo viloyati qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida

2025-yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar kesimida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Boyovut (1 813,3 mlrd soʻm), Sayxunobod (1 748,2 mlrd soʻm), Sirdaryo (1 600,9 mlrd soʻm), Oqoltin (1 395,9 mlrd soʻm), Guliston (1 337,3 mlrd soʻm) va Sardoba (1 326,1 mlrd soʻm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Shirin (40,6 mlrd soʻm), Yangiyer (45,2 mlrd soʻm) va Guliston shaharlarini (376,0 mlrd soʻm) keltirib oʻtish mumkin.

	Hajm, mlrd soʻm	Oʻsish surʼati % da
Sirdaryo viloyati	12 250,8	105,8
Guliston sh.	376,0	102,3
Shirin sh.	40,6	104,3
Yangiyer sh.	45,2	107,1
<i>tumanlar:</i>		
Oqoltin	1395,9	104,7
Boyovut	1 813,3	104,3
Sayxunobod	1748,2	104,5
Guliston	1337,3	104,6
Sardoba	1326,1	102,2
Mirzaobod	1242,7	119,4
Sirdaryo	1600,9	106,1
Xovos	1324,6	104,9

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati tahlil qilinganda, yuqori o'sish sur'atlari Mirzaobod (**119,4 %**) tumani, Yangiyer shahri (**107,1 %**), Sirdaryo (**106,1 %**) va Xovos (**104,9 %**) tumanlarida qayd etildi.

Boshqa hududlarga nisbatan Sardoba tumani (**102,2 %**) va Guliston (**102,3 %**), Shirin (**104,3 %**) shaharlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish


2025-yilning yanvar-sentabr oylarida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi **11 453,1** mlrd so'mni yoki 2024-yilning mos davriga nisbatan **105,6 %** ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari **5 812,7** mlrd so'mni (**109,3 %**), chorvachilik mahsulotlari **5 640,4** mlrd so'mni (**101,7 %**) tashkil qildi.

Hududlar kesimida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eng yuqori hajmi Boyovut (**1 727,8** mlrd so'm), Sayxunobod (**1 657,5** mlrd so'm), Sirdaryo (**1 500,3** mlrd so'm) va Oqoltin (**1 314,7** mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Shirin (**37,5** mlrd so'm), Yangiyer (**40,5** mlrd so'm) va Guliston shaharlarini (**347,6** mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Mirzaobod (**118,8 %**), Sirdaryo tumanlari (**106,2 %**), Yangiyer shahri (**105,9 %**) va Xovos (**105,0 %**) tumanida qayd etildi. Boshqa hududlarga nisbatan Sardoba tumani (**102,5 %**), Guliston shahri (**102,6 %**) va Boyovut (**103,8 %**) tumanida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining **60,8 %** dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **27,8 %** fermer xo'jaliklariga, **11,4 %** qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish

Hududlar kesimida dehqonchilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Boyovut (900,7 mlrd so‘m), Sirdaryo (803,5 mlrd so‘m), Sayxunobod (787,0 mlrd so‘m), Oqoltin (725,8 mlrd so‘m) va Xovos (695,5 mlrd so‘m) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Shirin (6,1 mlrd so‘m), Yangiyer (10,7 mlrd so‘m) va Guliston shaharlarini (120,7 mlrd so‘m) keltirib o‘tish mumkin.

Yuqori o‘shish sur‘atlari Mirzaobod tumani (139,3 %), Yangiyer shahri (132,9 %), Shirin shaharlari (123,7 %), Sirdaryo (111,4 %) va Guliston (109,5 %) tumanlarida qayd etildi. Boshqa hududlarga nisbatan Sardoba (101,1 %), Boyovut (105,4 %) tumanlarida va Guliston shahrida (105,5 %) esa aksincha o‘shish sur‘atlari pastligi kuzatildi.

2025-yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 534 560,4 tonna donli ekinlar (2024-yilning yanvar-sentabriga nisbatan 12,1 % ga ko‘p), 60 131,1 tonna kartoshka (4,8 % ga ko‘p), 255 799,5 tonna sabzavotlar (4,2 % ga ko‘p), 276 474,8 tonna poliz ekinlari (30,9 % ga ko‘p), 39 162,2 tonna meva va rezvorlar (9,0 % ga ko‘p), 12 589,0 tonna uzum (3,2 % ga ko‘p) yetishtirildi.

Yetishtirilgan asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlari 2025-yil yanvar-sentabr

	Miqdori	O‘shish sur‘ati % da
Donli ekinlar, tonna	534 560,4	112,1
shu jumladan:		
fermer xo‘jaliklari	362 649,0	105,7
dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	54 668,4	2,5 m.
qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	117 243,0	104,5
Kartoshka, tonna	60 131,1	104,8
shu jumladan:		
fermer xo‘jaliklari	8 139,0	120,5
dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	51 445,1	102,4
qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	547,0	149,9



	Miqdori	O'sish sur'ati % da
Sabzavotlar, tonna	255 799,5	104,2
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	74 455,0	110,5
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	161 981,5	100,0
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	19 363,0	120,6
Poliz ekinlari, tonna	276 474,8	130,9
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	129 866,0	111,0
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	123 458,8	163,2
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	23 150,0	124,3
Meva va rezavorlar, tonna	39 162,2	109,0
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	20 566,0	113,1
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	16 877,2	100,4
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1 719,0	182,1
Uzum, tonna	12 589,0	103,2
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	2 214,0	109,9
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	10 060,0	100,0
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	315,0	2,5 m.

2025-yil yanvar-sentabr oylarida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yetishtirilgan donli ekinlar yetishtirishning **67,8** % fermer xo'jaliklari hissasiga, **10,3** % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **21,9** % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.

2025 yil yanvar-sentabr oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi
dehqonchilik mahsulotlari (tonna)

	Donli ekinlar	Kartoshka	Sabzavotlar
Sirdaryo viloyati	534 560,4	60 131,1	255 799,5
Guliston sh.	2 345,3	2 514,0	14 146,3
Shirin sh.	286,7	204,0	384,0
Yangiyer sh.	665,1	374,5	301,4
<i>tumanlar:</i>			
Oqoltin	73 471,0	571,4	16 020,3
Boyovut	107 609,9	9 554,2	22 291,1
Sayxunobod	71 122,2	11 606,1	39 523,5
Guliston	54 504,8	5 324,3	21 180,7
Sardoba	67 312,9	2 218,3	33 522,1
Mirzaobod	31 530,0	4 477,1	25 010,0
Sirdaryo	67 663,7	18 528,0	44 175,7
Xovos	58 048,8	4 759,2	39 244,4

Shunga mos ravishda kartoshkaning **13,5** % fermer xo'jaliklari hissasiga, **85,6** % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **0,9** % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, sabzavotlarning **29,1** % fermer xo'jaliklari hissasiga, **63,3** % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **7,6** % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, poliz ekinlarining **47,0** % fermer xo'jaliklari hissasiga, **44,6** % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **8,4** % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, meva va rezavorlarning **52,5** % fermer xo'jaliklari hissasiga, **43,1** % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **4,4** % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, uzumning **17,6** % fermer xo'jaliklari hissasiga, **79,9** % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **2,5** % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

2025 yil yanvar-sentabr oylarida yetishtirilgan ayrim turdagi
dehqonchilik mahsulotlari (tonna)

	Poliz ekinlari	Meva va rezavorlar	Uzum
Sirdaryo viloyati	276 474,8	39 162,2	12 589,0
Guliston sh.	3 082,1	886,2	296,4
Shirin sh.	2,1	50,2	28,6
Yangiyer sh.	84,5	290,4	36,8
<i>tumanlar:</i>			
Oqoltin	74 577,8	3 099,9	1 244,5
Boyovut	18 265,1	6 481,0	2 247,6
Sayxunobod	20 222,2	5 945,9	1 128,1
Guliston	13 307,5	4 255,3	2 140,4
Sardoba	30 869,6	2 678,2	244,8
Mirzaobod	62 076,9	4 872,0	1 076,0
Sirdaryo	10 828,7	3 259,6	2 000,8
Xovos	43 158,3	7 343,5	2 145,0

Chorvachilik mahsulotlari yetishtirish

Hududlar kesimida chorvachilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Sayxunobod (870,5 mlrd so‘m), Boyovut (827,1 mlrd so‘m), Sirdaryo (696,8 mlrd so‘m), Guliston (676,4 mlrd so‘m) va Oqoltin (589,0 mlrd so‘m) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Yangiyer (29,8 mlrd so‘m), Shirin (31,4 mlrd so‘m) va Guliston shaharlarini (226,9 mlrd so‘m) keltirib o‘tish mumkin.

Yuqori o‘shish sur‘atlari Sardoba (104,4 %), Sayxunobod (102,8 %), Mirzaobod (102,6 %) va Boyovut (101,9 %) tumanlarida qayd etildi. Yangiyer shahri (97,2 %), Guliston (100,2 %) va Sirdaryo (100,5 %) tumanlarida esa aksincha o‘shish sur‘atlari pastligi kuzatildi.

2025-yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda **60 101,0** tonna go‘sht, **300 920,0** tonna sut, **185 172,0** ming dona tuxum, **593,0** tonna qirqib olingan jun yetishtirildi va **6 866,6** tonna baliq ovlandi.

Hisobot davrida tirik vaznda yetishtirilgan go‘sht hajmi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **102,5** % ni, sog‘ib olingan sut – **100,3** % ni, olingan tuxum – **118,6** % ni, qirqib olingan jun – **104,6** % ni hamda ovlangan baliqlar – **122,2** % ni tashkil qildi.

Yetishtirilgan asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari va ovlangan baliqlar
2025-yil yanvar-sentabr

	Miqdori	O‘sish sur‘ati % da
Go‘sht (tirik vaznda), tonna	60 101,0	102,5
shu jumladan:		
fermer xo‘jaliklari	2 569,0	115,9
dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	51 926,0	100,9
qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	5 606,0	113,6
Sut, tonna	300 920,0	100,3
shu jumladan:		
fermer xo‘jaliklari	26 465,0	115,2
dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	257 467,0	98,3
qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	16 988,0	112,7
Tuxum, ming. dona	185 172,0	118,6
shu jumladan:		
fermer xo‘jaliklari	13 516,0	106,0
dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	105 456,0	100,8
qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	66 200,0	171,1



	Miqdori	O‘shish sur‘ati % da
Jun, tonna	593,0	104,6
shu jumladan:		
fermer xo‘jaliklari	92,0	105,7
dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	475,0	102,8
qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	26,0	144,4
Baliq, tonna	6 866,6	122,2
shu jumladan:		
fermer xo‘jaliklari	4 139,4	119,0
dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	87,7	108,3
qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	2 639,5	128,0

2025-yil yanvar-sentabr oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, yetishtirilgan go‘shning umumiy hajmidan **4,3 %** fermer xo‘jaliklari hissasiga, **86,4 %** dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, **9,3 %** qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini qayd etib o‘tish lozim.

Shunga mos ravishda sog‘ib olingan sutning **8,8 %** fermer xo‘jaliklari, **85,6 %** dehqon va tomorqa xo‘jaliklari, **5,6 %** qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to‘g‘ri keldi.

Shu bilan birga, olingan tuxumning **7,3 %** fermer xo‘jaliklariga, **57,0 %** dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, **35,7 %** qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keldi.

Shuningdek, qirqib olingan junning **15,5 %** fermer xo‘jaliklari, **80,1 %** dehqon va tomorqa xo‘jaliklari, **4,4 %** qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to‘g‘ri keldi.

O‘z navbatida, ovlangan baliqlarning **60,3 %** fermer xo‘jaliklariga, **1,3 %** dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, **38,4 %** qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelganligini qayd etish lozim.



2025 yil yanvar-sentabr oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi
chorvachilik mahsulotlari va ovlangan baliqlar

	Go'sht (tirik vaznda), tonna	Sut, tonna	Tuxum, ming dona	Baliq, tonna
Sirdaryo viloyati	60 101,0	300 920,0	185 172,0	6 866,6
Guliston sh.	4 077,8	5 439,3	21 872,0	68,9
Shirin sh.	390,2	936,0	534,0	0,4
Yangiyer sh.	437,3	743,1	642,2	9,3
<i>tumanlar:</i>				
Oqoltin	6 722,7	24 714,5	6 328,6	290,1
Boyovut	8 328,1	48 560,0	12 575,5	674,3
Sayxunobod	8 790,2	51 454,7	18 923,0	311,4
Guliston	7 314,8	33 766,4	15 526,3	452,8
Sardoba	6 392,7	26 395,2	34 971,8	595,2
Mirzaobod	4 927,9	37 990,0	44 822,9	3 891,7
Sirdaryo	6 967,5	41 892,6	15 946,1	220,9
Xovos	5 751,8	29 028,2	13 029,6	351,6



IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni

2025-yilning 1-oktabr holatiga barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni **492 198** boshga yetdi, (2024-yilning 1-oktabr holatiga nisbatan **1,5 %** ga ko'p), sigirlar **183 120** boshga (**0,7 %** ga ko'p), qo'y va echkilar **400 569** boshga (**3,7 %** ga ko'p), parrandalar **4 986 126** boshga (**7,8 %** ga ko'p) yetdi.

2025- yilning 1- oktabr holatiga xo'jaliklar toifalari bo'yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni

	Bosh	O'sish sur'ati % da
Yirik shoxli qoramollar	492 198	101,5
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	46 595	103,5
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	419 158	100,6
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	26 445	113,2
shundan sigirlar	183 120	100,7
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	21 283	108,8
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	150 640	98,5
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	11 197	120,2
Qo'y va echkilar	400 569	103,7
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	72 653	110,4
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	300 593	100,8
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	27 323	121,7



	Bosh	O‘sish sur‘ati % da
Otlar	17 836	105,3
shu jumladan:		
fermer xo‘jaliklari	5 195	114,2
dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	11 384	100,1
qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1 257	123,7
Parrandalar	4 986 126	107,8
shu jumladan:		
fermer xo‘jaliklari	355 405	106,0
dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	1 462 693	100,5
qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	3 168 028	111,7

2025-yilning 1-oktabr holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning **9,5 %** fermer xo‘jaliklari hissasiga, **85,1 %** dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, **5,4 %** qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini qayd etib o‘tish lozim.

Shunga mos ravishda sigirlarning umumiy sonidan **11,6 %** fermer xo‘jaliklariga, **82,3 %** dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, **6,1 %** qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keldi. Shuningdek, qo‘y va echkilarning umumiy sonidan **18,1 %** fermer xo‘jaliklariga, **75,0 %** dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, **6,9 %** qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keldi. Parrandalar umumiy sonidan **7,2 %** fermer xo‘jaliklariga, **29,3 %** dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, **63,5 %** qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keldi.



2025- yilning 1- oktabr holatiga hududlar kesimida
chorva mollari va parrandalar bosh soni, bosh

	Yirik shoxli qoramollar	shundan, sigirlar	Qo'y va echkilar	Parrandalar
Sirdaryo viloyati	492 198	183 120	400 569	4 986 126
Guliston sh.	18 456	7 028	12 081	1 747 644
Shirin sh.	4 465	1 819	4 917	17 850
Yangiyer sh.	6 632	2 760	11 625	119 932
<i>tumanlar:</i>				
Oqoltin	41 573	13 716	32 858	317 743
Boyovut	81 980	29 772	77 109	279 876
Sayxunobod	75 893	29 802	45 255	235 756
Guliston	60 714	19 429	33 751	218 101
Sardoba	41 324	12 947	38 759	596 968
Mirzaobod	51 348	19 098	46 812	716 076
Sirdaryo	56 319	22 103	36 878	465 480
Xovos	53 494	24 646	60 524	270 700

V. Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi boʻyicha uslubiy tushuntirishlar va metamaʼlumotlar

Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarish hajmi – sohada oʻz isteʼmoli va sotish uchun yaratilgan mahsulot va xizmatlarning umumiy qiymati. Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi dehqonchilik va chorvachilik mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi, ovchilik xoʻjaligida, oʻrmonchilik va yogʻoch tayyorlash, baliq ovlash va akvakultura sohasida yetishtirilgan mahsulot (xizmat)lar qiymati asosida shakllantiriladi.

Qishloq xoʻjaligi mahsulotlari – hisobot davrida fermer xoʻjaliklarida, dehqon va tomorqa xoʻjaliklarida hamda qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xoʻjaligida mahsulot yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

Fermer xoʻjaligi – ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xoʻjaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shugʻullanuvchi tadbirkorlik subʼektidir.

Dehqon xoʻjaligi – meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish yoki ijara (ikkilamchi ijara) huquqi asosida dehqon xoʻjaligi boshligʻiga berilgan yer uchastkasida qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini yetishtirishni va realizatsiya qilishni dehqon xoʻjaligi aʼzolarining mehnati asosida amalga oshiruvchi xoʻjalikdir.

Tomorqa xoʻjaligi – shaxsiy tomorqa yer uchastkalarida qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini ham erkin savdo uchun, ham oila ehtiyojlari uchun yetishtirish (qayta ishlash) bilan bogʻliq mehnat faoliyatidir.

Qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xoʻjaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xoʻjalik yuritish jarayonida yerga hamda boshqa ishlab chiqarish mulklariga egalik qiluvchi yuridik shaxs huquqiga ega xoʻjalik yurituvchi subʼekt hisoblanadi.

Mollar bosh soni – xoʻjalik toifalari boʻyicha barcha yosh guruhlaridagi asosiy turdagi chorva mollarini oʻz ichiga oladi (yirik shoxli qoramollar, shu jumladan sigirlar, qoʻy va echkilar, choʻchqalar va h.k.)

Goʻsht yetishtirish – soʻyish uchun sotilgan hamda oʻz xoʻjaligida soʻyilgan barcha turdagi qishloq xoʻjaligi hayvonlari va parrandalarning tirik vaznini oʻz ichiga oladi.

Sut yetishtirish – yosh mollarga ichirish uchun sogʻib olingan sut va ogʻiz sutini qoʻshgan holda, haqiqatda sogʻib olingan sigir, echki, qoʻy, biya va tuya sutlari bilan aniqlanadi. Buzoqlar emgan sut yalpi sogʻib olishga kiritilmaydi.

Tuxum yetishtirish – barcha turdagi parrandalardan olingan hamda kurk tovuqlar bilan va inkubatorlarda joʻja ochish uchun sarflangan tuxumlar miqdorini oʻz ichiga oladi.